

**O’QITUVCHI HAMDA OTA-ONA O’RTASIDAGI MULOQOT JARAYONINING
TURLI UNSURLARI**

Kamolova Ozodaxon Muzaffar qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika va Psixologiya mutaxassisligi magistranti

+998978260208 kamolova.ozodaxon27@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola hozirgi jamiyatimizda o’qituvchining ota-onalar bilan muloqot hamkorligini yo’lga qo’yishi hamda zamonaviy usullardan foydalangan holda ota-onalar bilan o’zaro munosabatlarni tashkil etishi haqida yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *hamkorlik texnologiyasi, innovatsion faoliyat, o’qituvchi, ota-ona, məktəb, təlim, uy, oila, pedagogik faoliyat, mantiq, tizim, tashabbus.*

Annotation: *This article describes how a teacher can establish a communication partnership with parents in our current society and organize interactions with parents using modern methods.*

Key words: *collaborative technology, innovative activity, teacher, parent, school, education, home, family, pedagogical activity, logic, system, initiative.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается, как учитель может наладить коммуникативное партнерство с родителями в современном обществе и организовать взаимодействие с родителями с помощью современных методов.*

Ключевые слова: *совместная технология, инновационная деятельность, учитель, родитель, школа, воспитание, дом, семья, педагогическая деятельность, логика, система, инициатива.*

Ma’lumki, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi, xususan, bolada iroda, odatlar, fe'l-atvor, xulq, e'tiqod va qarashlar vujudga keladi. Shu uchun turmushda insonni kamol toptirish sharoitlari, ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini izchil o'rganish kerak. O'qituvchi shaxsi bolaning rivoji uchun xizmat qiladi, kerak bo'lsa, uning kamoloti uchun ma'lum bir sog'ligini ham yo'qotadi. O'qituvchi o'quvchi uchun ikkinchi ota-ona hisoblanadi. "Jahonda bo'lmasa muallim agar hayot ham bo'lmasdi go'zal bu qadar", -deb aytib o'tgan Abdurahmon Jomiy bobomiz. Bobomiz bolaning kamoloti uchun o'qituvchi yetakchi rol o'ynashini nazarda tutgan edi. Bolaning muhitida balki, ota-ona ham yetakchi o'rinda turadi.


Bolaga nisbatan ota-ona, məktəb, jamiyat e'tiborsizligi oqibatida turli xil salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Misol uchun, e'tiborsizlik, manqurtlik, egoistlik, jinoyatchilik, huquqbazarlik kabi salbiy alomatlarga ro'jo' qo'yishi hech gap emas. Bularni oldini olish uchun, ikki subyekt o'qituvchi va ota-ona hamkorlikda ish olib borishi, bolaga e'tiborni ko'proq qaratishi lozim. "Biz "Adolat – qonun ustuvorligida" degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbazarlik holatlariga murosasizlik hissini

kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi¹. Ayni vaqtda ota-onalar bilan ishslash shakllari turli tanlovlari, savol-javob kechalari uyuştirilyapti. Bu sizga pedagogik bilimlaringizni aniqlashtirish, uni amalda qo'llash, yangi narsalarni o'rganish, bir-birining bilimlarini yuksaltirish, bolalar rivojlanishining ayrim muammolarini muhokama qilish imkonini beradi. Eng ommabop turlaridan biri shakllari oila va maktab o'rtasidagi muloqot hisoblanadi. Har bir ota-onan bilan ishslash bu foydadan holi emas. Buning afzalligi oilaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, dialoglar orqali ota va onalar (har biri bilan alohida, muloqotni kuzatish ota-onalar guruhda ham, uyda ham bolalar bilan o'qituvchilar birgalikdagi o'zaro munosabatlarning aniq usullarini belgilaydilar. Jamiyatimizda eng keng tarqalgan diagnostika usullaridan biri so'rovnomadir. Bunday hollarda o'qituvchi shaxsi o'quvchilar oilasiga tashrif buyuradi hamda bola va uning qarindoshlari bilan suhbatlashadi, bola bilan ta'lim jarayonida, uning yaqinlari bilan yaqin muloqotda bo'ladi. Bola uchun nafaqat maktab balki, oila muhiti ham ijtimoiy tajriba manbai hisoblanadi. O'z qo'rg'onida u namuna topadi, bu yerda uning ijtimoiy tug'ilishi sodir bo'ladi. Shu asnoda, biz ma'naviy sog'lom avlodni , yuksaltirmoqchi, aniqroq qilib aytsak, tarbiyalamoqchi bo'lsak, bu muammoni "oilalar bilan" hal qilishimiz kerak: maktab, oila, mahalla. Bunda bиринчи o'rinda, o'qituvchi oila bilan doimiy aloqada bo'lib, o'z shogirdining xususiyatlarini, odatlarini bilishi va ishlayotganda ularni hisobga olishi kerak. Muloqot to'grisida fikr yuritar ekanmiz avvalo u nima ekanligi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lismiz maqsadga muvofiq. Muloqot bu kishilarning (masalan, o'qituvchi va ota-onan) bir-birlariga nutq orqali og'zaki va yozma usulda axborot ayriboshlash, bir-birlarini tushunish, o'zaro ta'sir etishi tushuniladi. Muloqot jarayonida turli usullardan foydalansa (misol uchun, verbal, noverbal, individual muloqotlar) maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Hozirgi jamiyatimizda internet jadal rivojlanib ketdi. Hattoki, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyanayotgan bolalar fanni qanday o'zlashtirishi ham telegramlar orqali ota-onalar nazoratida amalga oshirilmoqda. Muloqotning o'zi qanday turlari bor? Demak, quyidagi A - chizmaga e'tibor qarating.

¹ Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 11 b.

A - chizma



Interaktiv bunday olib qarasak, sub'ektlarning o'zaro bir-birlarining xulq-atvoriga ta'sirlarini ta'minlovchi jarayonlardan biri;

Perseptiv turi esa, sub'ektlarning bir-birilarini to'g'ri, aniq idrok qilish va baholashlarini ta'minlovchi muloqot tomoni.

Verbal muloqot bu asosan, muloqotni og'zaki nutq orqali amalga oshirishi;

Noverbal muloqot esa «nutqsiz» ta'sir qilish (qiliqlar, qarashlar, hid, shovqinlar, tashqi qiyofa kabilardir

Identifikatsiya (lotincha “tenglashtirish”) bu umuman olganda, bir kishining ikkinchi kishini, uning ta'rifini sub'ektning o'z tarificha anglab yoki anglamay o'xshatishi orqali tushunish usulidir (misol uchun, o'zini «uning» o'rniga qo'yib ko'rish).

Stereotipizatsiya (grekcha, “takrorlanish”) bu ongda o'rnashib qolgan tasavvurlardan foydalanish demakdir.

Ota-onalarning muassasasining ular bilan qo'shma ishini tashkil etishda asosiy tamoyillar hozirgi kunda ham bor va ularni yana bir marta tilga olib o'tamiz, demak ota-onalarning bilishi kerak bo'lgan tamoyillarni ba'zilarni yodga olsak:

- ❖ Maktab dargohining oila uchun ochiqligi;
- ❖ Bolalarni tarbiyalashda o'qituvchilar va ota-onalarning hamkorligi;
- ❖ Oilada va sinfda bola shaxsni rivojlantirishga dastlabki yondashuvlarni ta'minlaydigan turli interfaol muhitni barpo ertishi;

❖ Bolaning rivojlanishi va tarbiyasidagi umumiy va xususiy muammolarning diagnostikasi;

Uzluksiz ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi ishonchli hamkorlikni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy unsurlar o'qituvchi shaxsi uchun kerakli vositadir:

O'qituvchi an'anaviy va noan'anaviy tarzda oilalar bilan yaqin muloqotda bo'ladi. Muloqot hamkorligini amalga oshirish mobaynida quyidagi usullardan foydalansa yanayam maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ota-onalarning yoshi, ularning bilimi, umumiy madaniy darajasi;
- bolalarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishi;
- ota-onalar, ularning farzandining ta'limi, farzandining oila munosabatlarining tuzilishi haqidagi va boshqalar haqidagi qarashlari;
- ota-onalar bilan ishlashning mazmuni va shakllarini o'yashi;
- turli oilalarning ehtiyojlarini o'rganish uchun tezkor so'rovnomalar o'tkazishi;
- vizual-axborot shakllari o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida amalga oshirilishi;
- ota-onalar bilan muloqot qilishning yozma shakllaridan biri bo'lgan shaxsiy daftarlarni yo'lga qo'yishi;
- ota-onalar konferentsiyasini yo'lga qo'yishi;
- ota-onalar ishtirokida pedagogik kengashni yo'lga qo'yishi;
- umumiy ota-onalar yig'ilishini yo'lga qo'yishi;
- har bir ota-onaning uyiga borib suhbat o'tkazishi;

Bolaning oilasini o'rganish uning oilasi bilan yaqindan tanishish, muloqot qilish, oilaning turmush tarzi, psixologiyasi, madaniyati va ularning moddiyati bilan birgalikda ko'rib chiqilsagina maqsadga muvofiq ish bo'lar edi. Eng keng tarqalgan jamoaviy turlaridan biri bu muloqotdir.

Muloqot shakllariga quyidagilar kiradi:

- Seminarlar;
- Treninglar;
- An'anaviy bo'lmanan muntazam uchrashuvlar, maslahatlashuvlar o'tkazish
- Mini-uchrashuvlar;
- Pedagogik brifing
- Pedagogika xonasi;
- Og'zaki pedagogik jurnallar;
- Pedagogik mazmundagi o'yinlar;
- Ota-onalar uchun pedagogik kutubxona;
- Tadqiqot va proyektiv, rolli, taqlid, ishbilarmonlik o'yinlari va boshqalar;

Oila bilan faol ishning turlaridan biri-bu faol munozara bo'lib, unda qatnashuvchilar bahslashadilar, o'z xulosalari bilan bahslashadilar, raqobatdoshi bilan munozaraga kirishadilar, ya'ni. aql va iste'dodlar ishlatishadi. Ota-ona bir-biridan kerakli ma'lumot oladilar, farzandi uchun qanday yondashsa, uning hayot yo'li yanada go'zallashadi shuni bilib oladilar. Psixologiya fanining fikricha, har bir jamoa turli xil o'ziga xos xususiyatlarga,

yashirin imkoniyatlarga ega. An'anaga ko'ra, ota-onalar va o'qituvchilarning ota-onalar yig'ilishida o'zaro munosabati asosan og'zaki shaklda amalga oshiriladi – bir ota yoki ona gapiradi, qolganlari tinglaydi. Yig'ilish doirasidagi o'zaro hamkorlik usullari doirasini kengaytirish interfaol usullardan foydalanish imkonini beradi. Avvalambor bu notanish so'z to'g'risida fikr yuritsak, "interaktiv" so'zi bizga ingliz tilidan "interact" so'zidan kelgan, bu yerda "inter" o'zaro, "act" - harakat qilishdir. Bunda ular o'zaro harakati tufayli, misol uchun og'zaki suhbat jarayonida amalga oshirilgan muloqotlar amalga oshiriladi. Interaktiv – o'zaro ta'sir o'tkazish yoki suhbat rejimida bo'lish qobiliyatini, biror narsa (masalan, laptop) yoki kimdir (masalan, shaxs) bilan muloqotdir. Interfaol tarbiya usullari ishtirok etish va o'zaro ta'sir orqali ota-onani tarbiyalash demakdir. Shu asnoda bir maqolni yodga olsak maqsadga muvofiq: "Men eshitaman va unutaman, ko'raman va tushunaman, qilaman va eslayman", - deydi Xitoy maqolida. Ya'ni, ming eshitgandan ko'ra bir ko'rgan afzal. Inson zoti ongida gumon qilingan narsani toki uni ushlab his qilib ko'rmaguniga qadar, u gumonda bo'lib yuraveradi. Interfaol usullardan foydalanish bir qancha psixologik va pedagogik muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, ushbu maqolada muhim bo'lgan narsa muloqot tamoyillari va ikki ijtimoiy subyektning o'zaro kirishimligidir.. Oila va maktab o'ziga xos funksiyalarga ega va bir-birini almashtira olmaydi. Muloqotning muhim shartlaridan biri, oila va maktab o'rtasida ishonchli ishbilarmonlik aloqasini o'rnatish bo'lib, uning davomida ota-onalar va o'qituvchilarning ta'lim pozitsiyasi o'rnataladi, bu ayniqsa bolalarni maktabga tayyorlashda asosiy unsurdan biri bo'lib xizmat qiladi. Muloqotni ikki subyekt amalga oshirar ekan, bundan ko'zlangan maqsad ikki subyektga ham tegishli bo'lgan uchinchi subyekt bo'l mish farzandni o'rganish hisoblanadi. U qanday o'qiyapti yoki oilada nima muammo, bolada qanday psixologik muammolar paydo bo'lgan yoki bo'lish arafasida, unda qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligi haqida ikki subyekt turli muloqot tamoyillaridan foydalanadi. Demak bu moloqot tamoyillari esa yuqorida aks ettirilgan.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.: Toshkent, "O'zbekiston", 2017-yil
2. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947 sonli Farmoni.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

3. Abduraxmonov F.R., Xalmuratova J.G. Pedagogik jarayonlarni boshqarish o'quv uslubiy qo'llanma.: T.:TTESI., 2015-yil

**“FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS
INTERDISCIPLINARY SCIENCES”**
ITALIA

4. Maxsudova M., Muloqot psixologiyasi. T.:”TURON-IQBOL”, 2006-yil
5. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. Kasb psixologiyasi (o‘quv qo‘llanma).:-
T.:P TTESI., 2017-yil
6. www.hozir.org.uz
7. www.sciencebox.uz
8. Kamolova O.M., O’qituvchi ish faoliyatida ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib
borishning pedagogik va psixologik tahlili maqolasi ,2022-yil

